IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: CZ10122429

**503-01-25-son**

20 noyabr 2024 yil.

**“T A S D I Q L A Y M A N”**

**Farg‘ona shahar hokimi**

**_______________V.Nazarov**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 5-avgustdagi KQ-792-IV-son qarori ijrosi yuzasidan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosi doirasida amalga oshiriladigan ishlarning mohiyati va ahamiyatini (Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2024-yil 4-oktabrdagi 594-01-50-son “YO‘L XARITASI”) keng jamoatchikikka yetkazish bo‘yicha**

**“YO‘L XARITASI”**

| № | Tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **1** | “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosi doirasida amalga oshiriladigan ishlarning mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish. | 1. Farg‘ona shahar hokimligida mutasaddi va vakolatli organlar vakillarini jalb qilgan holda rahbar va ishchi xodimlar uchun seminar tashkil etish.<br>2. Idoraviy kengaytirilgan hamda “Hokimlik soati” yig‘ilishlarida Qonun ijrosini tanqidiy muhokama qilib borish. | 2024-yil oktabr oyi<br><br>Har oyda | Farg‘ona shahar hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (N.Akmaldinov)<br>Farg‘ona shahar hokimligi Devonxona bo‘limi (A.Rashidov) |

| № | Tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **2** | Davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish. | 1. Mutasaddi va vakolatli organlar tomonidan davlat idoralari mas’ullari uchun qisqa o‘quv-kurslari tashkil etish.<br>2. Seminarlarda qonunda belgilangan talablarga rioya etmaslik tegishli javobgarlik keltirib chiqarishini tushuntirish. | Alohida reja-jadval asosida | Farg‘ona shahar hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (N.Akmaldinov)<br>Farg‘ona shahar hokimligi bosh yuriskonsultanti (X.Tuychiyev)<br>Adliya bo‘limi |
| **3** | “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosi yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini olib borish. | 1. Qonun ijrosi doirasida amalga oshiriladigan ishlarning mohiyati va ahamiyatini alohida seminarlar tashkil etgan holda mahalliy Kengashga yetkazish.<br>2. Mahalliy Kengash deputatlari tomonidan aholi va keng jamoatchilik ishtirokida o‘z saylov okruglarida targ‘ibot tadbirlarini tashkil etib borish.<br>3. Mahalliy Kengash sessiyalarida qonun ijrosi yuzasidan mas’ullar hisobotlarini eshitib borish. | 2024-yil oktabr oyi<br><br>Har oyda | Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi kotibiyati (Sh.Kamolov) |
| **4** | Davlat idoralari ishchi xodimlari ish stolida eslatma sifatida foydalanish uchun manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar va bunday vaziyatlarda ko‘riladigan choralar bo‘yicha tarqatma materiallar tayyorlash hamda tarqatish. | 1. Ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, tarqatma materiallar tayyorlash va chop etish.<br>2. Tayyorlangan tarqatma materiallarni har bir ishchi xodimga tarqatish. | Bir hafta muddatda | Farg‘ona shahar hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (N.Akmaldinov) |
| **5** | Manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallarini targ‘ib qilish. | 1. Farg‘ona shahar hokimligida manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallarini ommaviy axborot vositalari | Bir hafta muddatda | Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati (I.Omonboyev) |

| № | Tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar orqali keng targ‘ib qilib borish. | | |
| **6** | “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining mohiyati va ahamiyatini tushuntirish yuzasidan tadbirlar o‘tkazish hamda ularni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish. | 1. Farg‘ona shahridagi bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, shuningdek hokimlik, mahalliy kengash hamda korxona va tashkilotlarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali targ‘ibot materillarini joylashtirib borish. | Doimiy | Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati (I.Omonboyev) |

**Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari**
**N.Akmaldinov**